



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SHAXMAT O‘YININING TA’SIRI

Laylo Muhammadova

Do ‘stlik tumani 4-umumiyo‘rtatash’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

laylomuhamedov@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini oshirishda shaxmat o‘yinidan samarali foydalanish yo‘llari yoritilgan. “Shaxmat alifbesi” kitobi orqali o‘quvchilarning nafaqat o‘qish, balki mantiqiy fikrlash, matematik tafakkur va nutq madaniyatini shakllantirishda erishilayotgan natijalar tahlil qilinadi. Shuningdek, shaxmat o‘yinining bolalar diqqatini jamlash, mustaqil fitr bildirish, qaror qabul qilish, til boyligini kengaytirish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Muallif o‘z tajribasiga tayanib, shaxmat o‘yinini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha metodik tavsiyalarni ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar: *shaxmat, savodxonlik, boshlang‘ich ta’lim, “Shaxmat alifbesi”, mantiqiy fikrlash, o‘quv metodikasi.*

Agar inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan baquvvat bo‘ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo‘ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko‘rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san’atdir.

A.Navoiy

Mamlakatimiz va chet ellarda o‘tkazilgan pedagogik, psixologik va fiziologik tadqiqotlar, 6-7 yoshli bolalarda bilimlarni o‘zlashtirish hamda umumiyo‘sishning ruhiy va fiziologik imkoniyatlari hozirgacha biz faraz qilganimizdan ko‘ra ancha yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta’kidlaganidek, bu nimaning hisobidan bo‘ladi? Albatta, bunga bilim va tajriba, tinimsiz o‘qib-o‘rganish, izlanish, yangilikka intilish, yuqori texnologiyalarni joriy etish, islohotlarni samarali olib borish hisobidan erishish mumkin. Shu sababli yurtimizda agrar sektorni yalpi va tizimli transformatsiya qilish boshlandi. Ushbu sohani iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish — bosh maqsad bo‘lib, shu maqsadda 2020-2030-yillarga mo‘ljallab ishlab chiqilgan Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasida tarmoqni rivojlantirish borasidagi asosiy vazifalar aniq-ravshan belgilab qo‘yildi. Mushohada chegaralari odamning mashg‘ulotlariga bog‘liq bo‘lib, u kengayishi va torayishi mumkin.



Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Ikkinchchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.Davlat rahbari boshchiligidagi o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishida yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi.

Shaxmat o'yini mushohadani qo'zg'atadi va o'stiradi. Shaxmat o'yini ruhiyatni tetiklashtirishga yordam beradi. Shu sababli, biz birinchi sinf o'quvchilari uchun "Shaxmat alifbesi" kitobini yaratmoqdamiz. Bu kitob an'anaviy uslubda yaratilgan. Shuning uchun bu kitobdan nafaqat maktabda foydalanish, balki bolalarga uni uyda ham "Alifbe" kitobi bilan parallel ravishda o'rgatib borish mumkin.

"Shaxmat alifbesi" kitobi bolalarning savodxonligini o'stirish bilan birga, hisob-kitob va matematik amallarni tezroq o'rganishga yordam beradi. Birinchi sinfda bolalarga "Shaxmat alifbesi" kitobi bilan "Alifbe" kitobini qiyosiy taqqoslash yo'li orqali o'rgatish mumkin. Odatda alifbe kitoblari alfavit tartibida qurilgan, biroq "Shaxmat alifbesi" kitobi bilan ishlaganda bunga qat'iy amal qilish shart emas. "Shaxmat alifbesi"ni bolalar bilan birga o'qib borayotgan o'qituvchi ushbu qadimiyligi shaxmat o'yining boshlanish jarayoni-gambit, o'yining markazi va o'rtasi-midlshpil va o'yining nihoyasi-endshpildan iborat bo'lib, bu erda shaxmat taxtasining har bir satri alohida ma'noga ega bo'lib, ularning mohiyatini bolalarga kattalar yoki o'qituvchilar tushuntirishlari kerak.

Shuning uchun ushbu "Shaxmat alifbesi" kitobini o'qib borayotganda bolalar bilan suhbat olib borib, qanday so'zlar unga notanishligini bilish, ularni tushuntirish, metafora va tenglamalarni solishtirish, ma'nolarini shaxmat qoidalariga muqoyosa qilgan holda o'rgatish tavsiya qilinadi. Bolalardagi ushbu o'yin haqida paydo bo'lgan tasavvurlarni so'rab tushuntirish kerak bo'ladi. "Shaxmat alifbesi"dagi shaxmat o'yining mazmunini ko'rib chiqayotganda albatta shaxmat o'yiniga bevosita murojaat qilish, shaxmat taxtasidagi deyarli barcha sipochlarni ko'rsatib, tushuntirib berish kerak. Biroz faolroq fikrlab, tasavvur qilsangiz bas va buni qilish siz uchun oson bo'ladi.

Masalan, «N» harfini bolalarga o'rgatayotib, shaxmat o'ynashni o'rganish kerakligini tushuntiring, pand-nasihat qilishni shaxmat taxtasida hujum qilish



mashqini tasvirlash orqali ifodalab bering. “Hujum”, “shoh” so‘zlariga o‘quvchilaringiz bilan birgalikda sinonimlar izlab toping.

Bolalarni «R» harfi bilan tanishtirayotganda ularga maqsadga muvofiq ravishda shaxmatni qanday boshlashni o‘rgatib, nega bunday qilish kerakligini ko‘rsatib bering. SHu arning o‘zida kuchsiz yurish, markaziy hudud ustidan nazorat o‘rnatish muhimligi haqida tushunchalar berish kerak bo‘ladi.

Shaxmat donalaridan boshlanadigan harflarni o‘rgatayotib, bolalarni har bir dona bilan qanday yurish va qanday olishni amalga oshirishni o‘rgatayotib, bolalarga donalar bilan yurishni, olishni amalga oshirishni o‘rgating. Ularning kuchi tengligini masalalarda mashq qilish jarayonida, o‘rgatayotganda, oldinga siljish jarayonida “shoh”, “mot”, “pot” atamalari tushuntirilib boriladi. Shaxmat taxtasida juda sodda mashqlar bajariladi. Shaxmat o‘yini bir vaqtning o‘zida barcha donalar bilan bir varakayiga yurishni talab qilmagani bois, ular ta’lim jarayonida ham faol ishtirot etishlari kerak. Siz bunga qanchalik tez kirishsangiz, shunchalik yaxshi bo‘ladi. Ehtimol, an’anaviy "Alifbe" kitobini o‘qishni shaxmat donalaridan boshlash kerak bo‘lar.

“Shaxmat alifbesi” kitobining ikkinchi qismi «A» dan «Ng» gacha bolalarga mashqlarni yechish jarayoni uchun tavsiya qilinadi. Shaxmatni o‘rgatish siz uchun oson kechadi, agar siz «mantiqiy fikrlashni» o‘yinlar tizimida foydalana olsangiz, bolalarning savodxonlik va bilim salohiyati yuksalib boradi. Topishmoqlar, tez aytishlar, maqollar, metogrammalar, krossvordlarni yechish, zakovat o‘yini savollariga javob berish va lingvistik o‘yinlar o‘tkazish bolalar aqlini charxlaydi. Esda tutish kerakki, bolalarning mustaqil o‘qish va o‘zlashtirish jarayonlari ko‘proq kattalarning e’tibori va nazoratida bo‘lishi kerak.

“Shaxmat alifbesi” shaxmat o‘yini tushunchalariga asoslangan bo‘lib, asosan she’riy ifodalar orqali ochib beriladi va avvalambor, so‘z sehriga suyanadi. Zero so‘z va u bilan bog‘langan ijodiy ish ikkinchi signallar sistemasining rivojlanishiga zamin yaratadi. “Shaxmat alifbesi” bolalarning nafaqat so‘z boyligini oshirishga, ularning nutqini rivojlantirishga yordam beradi, so‘zning tasviriy kuchini tushunib etishga imkon beradi. Taqqoslashlar, metaforalar (kinoyalar), sinonimlar, shuningdek, ko‘pgina boshqa aniq choralar bolalar fikrini shakllantirib, uni mustaqil ravishda aytishga, ilgari surishga yordam beradi.

Shuni ta’kidlash joizki, “Shaxmat alifbesi”ning mazmun-mohiyati sof shaxmat o‘yinini o‘rgatishdan iboratdir. Qadimgi Sharq minatyuralarida shaxmat taxtasi va donalari zarlar bilan bezatilgan, ulardagи barcha ma’lumotlarni jamlasak, shaxmat o‘yini tarixi haqida etarlicha bilim va ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin. “Shaxmat alifbesi” kitobi orqali shaxmatni o‘rganish bilan birga, alfavit, matematika, hisob va odob-axloq ham o‘rganib boriladi. Shaxmat donalari



raqamlarining ahamiyati bu - inson ish faoliyati sohasi uchun ajoyib hisob-kitobni o‘zlashtirish modelini vujudga keltiradi.

Avvalambor, shaxmat o‘yinining shaxsga universal ta’siri shundaki, fikrning markazida joylashgan shaxmat qudratli mustahkam fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa, bilim berish faoliyatini rivojlantirib, keyinchalik kishi tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishadi.

“Shaxmat alifbesi” kitobi uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism-shaxmatdagi mavjud chizmalar, shaxmat taxtasining geometriyasi, yurish qoidalari, yutib olish, hujum qilish, shoh, mot hamda shaxmat ilmini, ikkinchi qism-midlshpil qoidalari, uchinchi kitob mustaqil shaxmat o‘rganuvchilarning o‘qishi uchun mo‘ljallab yozilgan.

Bolalarga ertaklar so‘zlab berayotib, albatta ular bilan ijodiy, oddiy shaxmat mashqlarini bajaring. Bu paytda bolalar mustaqil ravishda erkin fikrlashga o‘rganadi. Umuman, bizning “Shaxmat alifbesi” kitobi bolalarmi mustaqil ravishda mantiqiy fikrlashga o‘rgatishga mo‘ljallangan. Albatta, “Shaxmat alifbesi” kitobi o‘z oldiga bolalarning ijodiy zakovatlarini oshirishni va savodxonlik saviyasini rivojlantirishni ham maqsad sifatida qo‘ygan.

Bunda shaxmatchilar turli xil xarakter va intellektual darajadagi bolalarga murojaat qiladilar. Shaxmat o‘ynash orqali:

- variant tanlab, uning natijasini oldindan bilish;
- mustaqil ijod va xarakterni shakllantirish;
- vaqt ni his qilish;
- o‘z ishiga javobgarlikni tarbiyalash;
- o‘z oldiga maqsad qo‘ya olish;
- qat’iyatlilikni o‘rgatish;
- sabr-toqat qilish;
- nutq ravonligini o‘stirish;
- matematik hisob-kitob qilish;
- estetik didni va boshqa qobiliyatlarni shakillantiriladi.

“Shaxmat alifbesi” kitobida keltirib o‘tilgan uslubiy ko‘rsatmalarga, fikrlarga qat’iy amal qilish majburiy emas, aksincha, kitob keng doiradagi tarbiyachilarga, yosh o‘qituvchilarga va mustaqil ravishda shaxmat o‘rganmoqchi bo‘lgan o‘quvchilar ommasiga shaxmat o‘yini to‘g‘risida ilk tasavvur va tavsiyalar beradi.

Shaxmat o‘yinining o‘quvchilarning savodxonligiga bo‘lgan ta’siri quyidagi asosiy jihatlar orqali ko‘zga tashlanadi:



1. Diqqat va konsentratsiyani rivojlantiradi:

Shaxmatda har bir yurishni o‘ylab bajarish zarur, bu esa o‘quvchining diqqatini bir nuqtaga jamlay olish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu ko‘nikma matnni o‘qish va tushunishda ham muhimdir.

2. Mantiqiy tafakkurni kuchaytiradi:

Shaxmatdagi harakatlar ketma-ketligini rejalashtirish orqali bolalarda sabab-oqibat bog‘liqligini tushunish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi.

3. Tilni tushunish va ifodalash qobiliyatini oshiradi:

Shaxmat darslarida ishlatiladigan atamalar, o‘yining tahlili va muhokamasi o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi hamda o‘z fikrini aniq va tushunar

4. Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni o‘rgatadi:

Har bir yurish shaxsiy tanlovga asoslangan bo‘lgani uchun, o‘quvchi mustaqil fikrlashga odatlanadi. Bu esa o‘qilgan matn yuzasidan mustaqil fikr bildirish, insho yoki hikoya yozishda ko‘p yordam beradi.

Amerikalik psixolog **J.Gilford** “Aqlning 50 ga yaqin omili ma’lum, demak aqli bo‘lishning 50 usuli mavjud” - deb yozgan edi. Bizningcha, bu usullardan biri shaxmat o‘yinidir.

Bu qiziqarli aqliy o‘yinni boshlangich sinf o‘qituvchilari ham o‘rgansa va bolalarga o‘rgatsalar,

Prezidentimiz ta’kidlab o‘tgan **“erkin mushohadali, mustaqil fikrli yoshlarimiz”** jamiyatda yanada ko‘proq bo‘ladi. Zero, ertangi kunimiz keng mushohadali, erkin fikrli yoshlar qo‘lida. Yoshlarni tarbiyalash muaffaqiyati ko‘p jihatdan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasiga tushadi. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘s sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Xulosa:

Shaxmat – bu nafaqat sport turi yoki intellektual o‘yin, balki ta’lim jarayonida samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Boshlang‘ich sinfda shaxmatga bo‘lgan e’tibor o‘quvchilarning nafaqat matematik, balki til va savodxonlik yo‘nalishidagi yutuqlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun shaxmatni dars jarayonlariga integratsiya qilish zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdullaeva, M. Boshlang‘ich ta’limda ijodiy fikrlashni shakllantirishda shaxmatning o‘rni. Toshkent: TDPU nashriyoti. 2020
2. Ismoilova, N. Shaxmat o‘yinining maktabgacha va boshlang‘ich ta’limdagি ahamiyati. Pedagogika va psixologiya jurnali, №4, 45–49.2019
3. Polatov, B. Savodxonlikni rivojlantirishda noan’anaviy yondashuvlar. O‘qituvchi nashriyoti. 2021
4. Qodirova, D. Shaxmat orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. Andijon: Innovatsion ta’lim markazi. 2018
5. Shaxmat ta’lim dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Toshkent: XT vazirligi nashriyoti. 2020